

O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA RESURLARIGA SOLIQLARNING FISKAL VA EKOLOGIK TA'SIRI

Farmonov Dilshodbek Daminovich

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda energetika resurslariga qo'llaniladigan soliqlarning fiskal va ekologik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda energetika sohasida amal qilayotgan soliqlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va ularning atrof-muhit muhofazasiga ta'siri baholanadi. Maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida soliqlarning nafaqat fiskal, balki ekologik cheklov va rag'batlantiruvchi funksiyalari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil soliq siyosatini takomillashtirish, energetika resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: energetika resurslari, aksiz solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, fiskal siyosat, ekologik samaradorlik, yashil iqtisodiyot, davlat byudjeti, CO₂ emissiyasi

Hozirgi globallashtirish sharoitida iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi hamda tabiiy resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq muammolar jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu sharoitda yashil iqtisodiyotga o'tish masalasi ko'plab davlatlar uchun strategik ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida fiskal siyosat, xususan, soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda iqtisodiy o'sish va fiskal barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Energetika resurslari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari faoliyatida asosiy omil bo'lib, ularning qazib olinishi va iste'moli ekologik yuklamaning asosiy manbalaridan biri sanaladi. Xususan, yoqilg'i-energetika resurslaridan keng miqyosda foydalanish karbonat angidrid (CO₂) emissiyasining oshishiga, havo va suv resurslarining ifloslanishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish"¹⁶⁴ "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham dolzarb maqsad qilib belgilangan. Shu sababli energetika resurslariga qo'llaniladigan soliqlar nafaqat davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda, balki ekologik cheklov va rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida, jismoniy shaxslarga quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shuningdek, energiya samarador

¹⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni

gaz-gorelkali qurilmalarni sotib olish xarajatlarining 30 foizi miqdorida, biroq: quyosh fotoelektrik stansiyalari uchun — 3 million soʻmdan; quyosh suv isitkichlar uchun — 1,5 million soʻmdan; gaz-gorelkali qurilmalar uchun — 200 ming soʻmdan oshmaydigan miqdorda kompensatsiyalar taqdim etish¹⁶⁵ hamda bir qancha soliq imtiyozlari va preferensiyalarni qoʻllash Prezidentimizning 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son qarorida keltirib oʻtilgan.

Xalqaro amaliyotda, ayniqsa OECD mamlakatlarida energetika resurslariga soliqlar yashil soliq siyosatining asosiy elementi sifatida qaralib, ular orqali energiya isteʼmolini qisqartirish, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga erishilmoqda. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan Oʻzbekistonda energetika resurslariga soliqlarning ekologik samaradorligi masalasi hali yetarlicha chuqur ilmiy tadqiq etilmagan. Oʻzbekistonda energetika resurslariga nisbatan toʻgʻridan-toʻgʻri ixtisoslashgan soliqlar mavjud boʻlmasa-da, energetika resurslarining qazib olinishi va isteʼmoli bilan bogʻliq jarayonlarga bilvosita taʼsir koʻrsatuvchi aksiz soligʻi, yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq amal qilmoqda. Ushbu soliqlar fiskal jihatdan muhim boʻlishi bilan birga, energiya resurslaridan foydalanishni tartibga solish va ekologik barqarorlikni taʼminlashda muayyan rol oʻynaydi. Biroq amaldagi soliq mexanizmlarining ekologik taʼsiri va ularning yashil iqtisodiyotga oʻtishdagi samaradorligini baholash dolzarb ilmiy masala boʻlib qolmoqda.

Davlat byudjeti daromadlari tarkibida energetika resurslari bilan bogʻliq soliqlar alohida guruh sifatida ajratilmagan boʻlsa-da, ular resurs toʻlovlari va bilvosita soliqlar tarkibida muhim ulushni egallaydi. Ayniqsa, yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq davlat byudjeti daromadlarining resursga yoʻnaltirilgan barqaror manbasi hisoblanadi. Mazkur soliqlarning fiskal ahamiyati ularning byudjet daromadlari tarkibidagi ulushi, oʻsish surʼatlari hamda boshqa soliq turlari bilan oʻzaro nisbatlari orqali namoyon boʻladi. Shu sababli, energetika resurslariga oid soliqlarni baholashda ularning mutlaq hajmidan tashqari, byudjet daromadlari umumiy dinamikasi bilan taqqoslab tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozir biz davlat byudjeti daromadlarining 2020–2024 yillardagi oʻzgarishlari hamda bevosita va bilvosita soliqlar tarkibidagi resurs soliqlarining oʻrnini tahlil qilib chiqamiz. 2020–2024 yillar davomida Oʻzbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlari barqaror oʻsish tendensiyasini namoyon etgan (1-jadval).

165 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4422-son qarori.

Davlat byudjet daromadlari mlrd.so'mda

Ko'rsatkichlar		2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
I. Daromadlar		132 938	164 799	201 864	231 721	274 423
1.	Bevosita soliqlar	45 207	58 930	64 447	73 104	90 833
1.1	Foyda solig'i	28 712	38 363	37 650	40 779	52 620
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15 141	18 918	24 285	29 917	35 384
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq	1 354	1 649	2 513	2 407	2 829
2.	Bilvosita soliqlar	46 428	56 290	71 390	83 326	88 341
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	31 177	38 439	52 189	57 885	59 280
2.2	Aksiz solig'i	11 697	13 087	13 455	15 834	19 060
2.3	Bojxona boji	3 554	4 765	5 746	9 606	10 001
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	21 257	23 036	23 913	28 080	36 363
3.1	Mol-mulk solig'i	1 974	2 457	4 015	5 098	6 805
3.2	Yer solig'i	2 387	4 083	5 306	6 890	8 216
3.3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	16 417	15 812	13 887	15 300	20 170
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	479	684	704	791	1 173
4	Boshqa daromadlar	20 046	26 542	42 114	47 213	58 886

Yuqoridagi jadvalda ko'rishimiz mumkinki, 2020 yilda byudjet daromadlari 132 938 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 274 423 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,1 baravar oshgan.

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar 2020 yildagi 45 207 mlrd so'mdan 2024 yilda 90 833 mlrd so'mga yetib, 2 baravarga yaqin oshgan. Bevosita soliqlar tarkibida foyda solig'i yetakchi bo'lib, uning tushumlari 2020–2024 yillar davomida 28 712 mlrd so'mdan 52 620 mlrd so'mga oshgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari ham izchil o'sib, 2020 yildagi 15 141 mlrd so'mdan 2024 yilda 35 384 mlrd so'mga yetgan.

Bilvosita soliqlar esa byudjet daromadlarida muhim fiskal manba bo'lib qolmoqda. 2024 yilda bilvosita soliqlar tushumi 88 341 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu guruhda qo'shilgan qiymat solig'i asosiy ulushga ega bo'lib, uning tushumlari 2020 yildagi 31 177 mlrd so'mdan 2024 yilda 59 280 mlrd so'mga yetgan.

O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri energetika resurslariga yo'naltirilgan alohida soliq turi mavjud bo'lmasa-da, energetika sohasi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan aksiz solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq muhim fiskal instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Aksiz solig'i tushumlari 2020–2024 yillar davomida 11 697

¹⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

mlrd soʻmdan 19 060 mlrd soʻmga oshgan. Ushbu soliq turi, xususan, yoqilgʻi-energetika mahsulotlariga nisbatan qoʻllanilishi orqali nafaqat fiskal daromadlarni shakllantiradi, balki energiya resurslari isteʼmolini tartibga soluvchi iqtisodiy mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari 2024 yilda 20 170 mlrd soʻmni tashkil etib, resurs toʻlovlari tarkibida eng yuqori ulushni egallagan. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari nisbatan kichik boʻlsa-da, 2020 yildagi 479 mlrd soʻmdan 2024 yilda 1 173 mlrd soʻmga oshib, 2,4 baravar oʻsishni koʻrsatgan.

Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanganlik uchu ham bir qancha soliq imtiyozlari mavjud. Xususan, Soliq kodeksiga muvofiq, umumiy quvvati 100 kVtgacha boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalangan holda umumiy tarmoqqa elektr energiyasini realizatsiya qilishdan olingan foydaga foyda soligʻi boʻyicha 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasi ushbu qurilmalar foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran uch yil mobaynida qoʻllaniladi, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan kamida 25 foiz quvvatga ega elektr energiyasini toʻplash tizimi bilan jihozlangan quyosh panellari oʻrnatilganda esa mazkur soliq imtiyozi ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan eʼtiboran oʻn yil davomida amal qiladi. Shu bilan birga, uy-joy fondi obyektlarida umumiy quvvati 100 kVtgacha boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar uchun soliq summasi mazkur qurilmalar oʻrnatilgan oydan eʼtiboran uch yil davomida, elektr energiyasini toʻplash tizimi quyosh panellari quvvatining kamida 25 foizini tashkil etganda esa oʻn yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan oshmaydigan miqdorga kamaytiriladi hamda ushbu imtiyoz energiya taʼminoti tashkiloti tomonidan berilgan maʼlumotnoma asosida bitta koʻchmas mulk obyektiga nisbatan bir marotaba qoʻllaniladi.¹⁶⁷ 2025-yilda Oʻzbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 86,7 mlrd kVt/soatni tashkil etdi. Shundan 16,8 mlrd kVt/soati qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga toʻgʻri kelib, quyosh va shamol elektr stansiyalarida ishlab chiqarish hajmi 2,1 barobarga oshdi. Natijada 3,2 mlrd kub metr tabiiy gaz tejaldi hamda 4,7 mln tonna zararli moddalarning atmosferaga chiqarilishining oldi olindi.¹⁶⁸ Mazkur ijobiy koʻrsatkichlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni ragʻbatlantiruvchi soliq imtiyozlari va fiskal mexanizmlarning samaradorligini tasdiqlab, ushbu imtiyozlarning iqtisodiy va ekologik natijalarga bevosita taʼsir koʻrsatayotganini yaqqol namoyon etadi.

Umuman olganda, Oʻzbekistonda energetika resurslariga qoʻllanilayotgan soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir qatorda, ekologik barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ragʻbatlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari energiya ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiya qilish,

¹⁶⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 30.12.2019

¹⁶⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/05/energy/>

yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali foydalanish hamda zararli tashlanmalarni kamaytirishga imkon bermoqda. Shu bois energetika sohasida fiskal va ekologik maqsadlarni uyg'unlashtirgan soliq siyosatini izchil takomillashtirish mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi. — Toshkent: 2019-yil 30-dekabr*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422-son qarori.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son farmoni*
5. *O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat byudjeti daromadlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlari.*
6. *O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Energetika va atrof-muhit bo'yicha rasmiy statistik axborotlar.*
7. *United Nations Environment Programme (UNEP). Working towards a Balanced and Inclusive Green Economy. — United Nations, 2011.*

SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINING HUQUQIY JIHATLARI VA AHAMIYATI

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna.

PhD., TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM doktoranti (DSc).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliya tizimining barqarorligi, avvalo, soliqqa tortish mexanizmlarining huquqiy jihatdan aniq ishlab chiqilganligi va amaliy ijro etilish darajasiga bog'liq. Bu jarayonda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi alohida o'rin tutib, bunda soliqqa tortish obyektini va bazasini belgilash, hisoblash, hujjatlashtirish hamda nazorat qilishning izchil tartibini yaratib beradigan jarayon hisoblanadi. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasining huquqiy asoslari qanchalik aniq va barqaror bo'lsa, soliq majburiyatlarini to'g'ri aniqlash, fiskal intizomni ta'minlash hamda soliq tushumlarining prognoz qilinuvchanligini oshirish shunchalik osonlashadi deya olamiz. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi faqat texnik hisob-kitoblar yig'indisi emas, balki davlatning "fiskal boshqaruv" modelini belgilovchi normativ institut hamdir.